

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7846452>

**Obloberdiyeva Mexrubon Faxritdinovna**

*Samarqand Davlat Universiteti Maktabgacha va*

*Boshlang'ich ta'lim fakulteti 4-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy olamini va dunyoqarashini rivojlantirishdan iborat. Boshlang'ich sinflarda ertakni o'qishga o'rgatish o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, yaxshi va yomonni farqlash, hayotga teran ko'z bilan qarash kerakligini o'rgatadi.*

**Kalit so'zlar:** *xalq og'zaki ijodi, ertak, badiiy olam, integratsiya, o'quvchilar savodxonligi, nutqiy savodxonlik, boshlang'ich ta'lim, ona tili va o'qish savodxonligi, axloqiy fazilatlar, og'zaki hikoya.*

Bugun dunyo turli jabhalarda turli sohalarda jadal rivojlanib bormoqda jumladan, ta'lim sohasida ham keskin islohotlar olib borilmoqda. Yangi O'zbekistonimda ham ta'limga e'tibor qaratish sifati yaxshilanmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: „Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat, va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”. [1] Shunday ekan, yoshlar yurtimiz kelajagidir. Bu kelajaklarning esa poydevori mustahkam bo'lishi kerak. Ular teran fikrlaydigan, o'z fikrini aniq tushuntira oladigan, puxta va epsil yoshlar bo'lishi kerak. Bu fazilatlarini tarbiyalashda o'qituvchining o'rni beqiyosdir. Uni qanday qilib tarbiyalash ham unga bog'liqdir. Jumladan, ertak o'qishga o'rgatish ham bolani tarbiyalash usuliga kirar ekan. Chunki har qanday kichik yoshdagi bolaning ruhiyatida ertak eshitishga moyillik bor. Zero, Eynshteyn aytganidek: „Bolangiz yaxshi odam bo'lishini xohlasangiz, kitob o'qib bering. Bolangiz yanada yaxshiroq odam bo'lishini istasangiz, yanada ko'proq kitob o'qib bering”.

Darhaqiqat, xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlaridan biri ertaklardir. „Ertak” so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, ertak, „gapiradi” degan ma'noni anglatadi. Demak, bu atama odatda o'ylab topilgan, ya'ni xayoliy aytib berish harakati bilan bog'liq. Ertak juda qadimgi janr bo'lib, uni yozishdan oldin og'zaki an'analar orqali yetkazilgan. Xalq tomonidan yaratilgan ko'plab ertaklarda bolalarning o'ziga xos hayoti chetlab o'tilmagan. Hatto turli yoshdagi bolalar uchun juda ko'p maxsus ertaklar yaratilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, 2021-yildan boshlab Milliy o'quv dasturiga ko'ra boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan „O'qish” va „Ona tili” darslari integratsiyalashtirilib, ta'lim amaliyotiga „Ona tili va o'qish savodxonligi” darslari joriy

qilindi. 1-4-sinflar uchun shu nomdagi darsliklar chop qilindi. Bu darslikning asosiy maqsadi bolalarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularning og'zaki va yozma nutqi hamda tafakkurini o'stirish, shaxs sifatida shakllantira borish, ularda bilim olishga qiziqishni o'stirish, faollik kabilarni shakllantirish hisoblanadi. Ayniqsa, o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitishda ertaklarni o'qitishning ahamiyati kattadir. Xususan, 1-sinf „Ona tili va o'qish savodxonligi“ darsligining „San'at va madaniyat“ bo'limidagi „Ertakdagi qahramon“ mavzusi doirasida „Zumrad va Qimmat“, „To'g'rivoy va Egriboy“, „Uch og'ayni botirlar“ kabi o'zbek xalq ertaklari haqida ma'lumot beriladi hamda „Serkaboboning hiylasi“ ertagi o'rganiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga ertak o'rgatish ularda:

- 1.O'z muammosiga munosabatni o'zgartirishga;
- 2.Muammoga yechim topishga;
- 3.Qo'rquvlardan qutulishga;
- 4.Xatosini tushunishga;
- 5.Motivatsiya olishga undaydi.

O'qituvchi ertak syujeti haqida gapirganda, bosh qahramonni tanlab uning hayotini tasvirlashi, bosh qahramon hayotidagi muammoli holat haqida aytishi, qahramonning muammoni yechishga harakat qilishi yoki majbur bo'lishi so'ng muammo hal bo'lgach qahramon hislarini ham tasvirlab berishi kerak. Voqeani tinglagan o'quvchilar esa hayot haqida xulosa chiqaradi, voqeadagi holat haqida fikrlar qiladi va qahramonlar hislari va kechinmalarini boshdan o'tkazadi. Bu esa ularda psixologik jihatdan o'zini anglashga, atrof-muhit bilan munosabatni yaxshilashga, qo'rquvlardan qutulishga, harakat qilishga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tmoqchimanki, islomiy jihatdan ham Qur'on qissalari ham voqealar orqali musulmonlarga ibrat beradi, ogohlantiradi. Ertak o'rgatish ham xuddi shunday bolalarni teran fikrlashga, yaxshi va yomonni ajratishga, hayotga teran ko'z bilan qarashga undaydi. Ertakdagi bolaga yoqqan qahramonlar bilan uni o'rtoq qilib qo'yish, ular qiyin vaziyatlarga tushib qolganida so'z bilan yordamga yo'naltirish bolalarda o'zgani his qilish tuyg'usini shakllantiradi. Ba'zan ertakning eng qiziq joyiga kelganda o'qishni ertaga davom ettirishni aytib to'xtatib qo'yish ham mumkin. Bu ish turi o'z-o'zidan bolani ertagacha ertak qahramonlari haqida, ularning keyingi faoliyati haqida o'ylab yurishga majbur qiladi. Bola xayolan ular bilan birga kezadi, birgalikda yomonliklarga qarshi kurashadi. Ayni zamonda, ertangi ertak eshitish soatini, zavqli damlarni, o'ziga huzur bag'ishlovchi damlarni zoriqib kutadi. Bu kutish jarayoni ham bolada o'qishga bo'lgan muhabbat hissining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar hajm jihatdan kichkina, mazmuni soda bo'lishidan tashqari, rasm va bo'yoqlar bilan boy bo'lishi ham kerak. Bu ertaklar vositasida tabiat, ona-Vatan, hayvonot olamiga g'amxo'rlik qilish, to'g'ri so'zli, odobli bo'lish, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni e'zozlash, singari masalalar o'quvchilarning ong tushunchasiga yetkazilishini eslatib o'tish lozim. Negaki,

yaxshi mukammal tarbiyalangan bola boshqalarga hech bir ozor yetkazmasligini, takabburlik qilmasligini, hech kimga haqorat ko'zi bilan qaramasligini, rostgo'y bo'lishini darslikda tavsiya etilgan ertaklar orqali bilib olishadi. Mana bunday go'zal xislatli bolalarni esa el sevadi, e'zozlaydi.

Boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'qitish quyidagicha talablarni qo'yadi:

- 1) Ertak matnlari asosida o'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlarini hosil qilish;
- 2) O'quvchilarning matn mazmunini to'la tushunishlariga erishish;
- 3) Ertakdagi obrazlarni bir-biridan faqrlay bilishga o'rgatish;
- 4) O'quvchilarning estetik zavq olishlariga erishish;
- 5) Ertakdagi qiyin so'zlarning to'g'ri tushunilishini ta'minlash;
- 6) Axloqiy sifatlarni qiyoslab xulosa chiqarishlariga erishish.

O'qituvchi qoloq, qoniqarsiz o'quvchilari uchun ertak o'qib berish orqali yoki ertak to'qish orqali o'quvchisining xulqini to'g'irlashi mumkin. Ertak to'qish bo'yicha maslahatlar:

1. Avvalo o'quvchini to'g'ridan-tog'ri qahramon qilmaslik.
2. Muammoni yechish vaqtida o'quvchidan yechim so'ramaslik.
3. Bosh qahramon muammoni o'zi hal qilish kerak.
4. Maktab yoshidagi bolalar o'z qiziqishlariga aloqador ertaklar xohlaydi.
5. 6-7 yoshli bolalarga qiziqarli, sehrli voqealar qiziq.
6. 8-9 yoshli bolalarga hayotiy voqealar qiziq.

Xulosa qilib aytganda, ertaklar ezgulikka yetaklaydi. Yaxshi hayot kechirish insonning o'ziga bog'liq. U nechog'lik to'g'ri so'zli, aqlli, pok ko'ngilli bo'lsa, do'stga, vatanga xiyonat qilmasa, yolg'on gapirmasa, topshirilgan ishni vaqtida bajarib, va'dasiga vado qilsa, uni el dildan sevadi, hurmat qiladi, ertaklardan ana shu fikrlarni uqish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. Azimova I., Mavlonova K., Qurbonov S. va b. Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'limning 1-sinfi uchun darslik. 1-qism. Toshkent Respublika markazi, 2021.-104 b.
3. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi-Toshkent: "Oqituvchi", 1990
4. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi-Toshkent, 2017